



## MODERN APPROACHES TO HUMAN RESOURCE MANAGEMENT

*Murodjon Aliyev*

*Intern Lecturer*

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Jizzakh, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** human resource, human capital, digital economy, reskilling, sustainability, education, healthcare, HDI, inclusion, innovation.

**Received:** 19.12.25

**Accepted:** 20.12.25

**Published:** 21.12.25

**Abstract:** This article examines the contemporary evolution of human resources and human capital and their central role in social and economic development. It outlines the shift from viewing people as mere labor to recognizing them as composite assets of knowledge, health, skills and creativity that determine competitiveness. The impact of digital transformation and automation is analyzed, highlighting the need for sustainable, adaptable and long-term workforce strategies. The article emphasizes the strategic importance of investments in education, healthcare and continuous reskilling for building quality human capital. Human development indicators, such as life expectancy and education quality, are discussed as measures of societal wellbeing. Digital learning platforms enable rapid skills updating but also pose risks of occupational displacement. Sustainable development frameworks are shown to align policies for inclusive growth. The conclusion stresses that coordinated institutional policies and targeted investments are essential to strengthen human capital and secure resilient national development.

---

## INSON RESURSIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Murodjon Aliyev*

*stajyor-o'qituvchi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Jizzax, O'zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**


---

**Kalit soʻzlar:** inson resursi, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, reskilling, barqarorlik, taʼlim, sogʻliq, HDI, inklyuzivlik, innovatsiya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola inson resursi va inson kapitali tushunchalarining zamonaviy evolyutsiyasini hamda ularning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishdagi markaziy rolini yoritadi. Matnda inson resursi anʼanaviy mehnat kuchidan chiqib, bilim, sogʻliq, malaka, ijodkorlik va ijtimoiy qadriyatlar majmuasi sifatida qaralishi tushuntiriladi. Raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish inson kapitaliga moslashuvni, barqarorlikni va uzoq muddatli samaradorlikni talab qilishi taʼkidlanadi. Maqola taʼlim, sogʻliqni saqlash va kasbiy qayta tayyorgarlikka sarmoya kiritishning strategik ahamiyatini koʻrsatadi. Inson taraqqiyati indeklari — umr davomiyligi va taʼlim sifati kabi koʻrsatkichlar orqali jamiyat farovonligini oʻlchash samarasi tahlil qilinadi. Raqamli taʼlim va onlayn platformalar tez malaka yangilash imkonini beradi, biroq kasblarning oʻzgarishi va reskilling zaruriyatini ham keltirib chiqaradi. Xulosa: integratsiyalashgan siyosat va maqsadli investitsiyalar inson kapitalini mustahkamlash va milliy barqarorlikni taʼminlash uchun muhimdir.

---

**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ**

*Муроджон Алиев*

*стажёр-преподаватель*

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Джизак, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** человеческий ресурс, человеческий капитал, цифровизация, переквалификация, устойчивость, образование, здравоохранение, HDI, инклюзия, инновации.

**Аннотация:** Статья анализирует современное развитие понятий человеческого ресурса и человеческого капитала и их ключевую роль в социально-экономическом развитии. Переход от представления людей как рабочей силы к пониманию их как носителей знаний, здоровья, навыков и креативности, формирующих конкурентоспособность, подробно раскрыт. Рассматривается влияние цифровой трансформации и автоматизации, что требует устойчивых, адаптивных и долгосрочно эффективных кадровых стратегий. Подчёркивается стратегическая важность инвестиций в

---

образование, здравоохранение и переподготовку для формирования качественного человеческого капитала. Обсуждаются показатели человеческого развития, такие как продолжительность жизни и качество образования, как индикаторы благосостояния. Цифровые платформы открывают возможности для быстрой актуализации навыков, но также вызывают риск замещения профессий. Заключение: скоординированные институциональные меры и целевые инвестиции необходимы для укрепления человеческого капитала и обеспечения устойчивого развития.

---

**Kirish.** So‘nggi yillarda inson resursi tushunchasi global miqyosda tub o‘zgarishlarga uchrab, an’anaviy iqtisodiy mazmundan chiqib, falsafiy, ijtimoiy va gumanistik ko‘lamda yangicha talqin qilinmoqda. Ilgari inson resursi faqat mehnat kuchi, ishlab chiqarish jarayonining bir omili sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi davrda u jamiyat taraqqiyotining asosi va strategik boyligiga aylangan.

Inson resursini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari bugungi kunda global raqobat, texnologik o‘zgarishlar va raqamli transformatsiya sharoitida yangi tamoyillar asosida shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, inson resursi boshqaruv tizimining strategik yo‘nalishlari barqarorlik (sustainability), moslashuvchanlik (adaptability) va uzoq muddatli samaradorlik (long-term efficiency) tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Barqarorlik - inson resursini faqat bugungi iqtisodiy foyda uchun emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy, ma’naviy va intellektual farovonlikni ta’minlaydigan tizim sifatida rivojlantirish degani. Ya’ni, inson resursiga qisqa muddatli yondashuv (masalan, ishchi kuchini tez o‘qitish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish) o‘rniga, uzluksiz rivojlanadigan, o‘zini yangilab turadigan, sog‘lom va bilimli inson salohiyatini yaratish maqsadi qo‘yiladi.

Moslashuvchanlik esa raqamli iqtisodiyot va texnologik o‘zgarishlarga inson resursining tez moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydi. Uzoq muddatli samaradorlik tamoyili esa inson resursi sohasida amalga oshirilayotgan investitsiyalar natijalarini qisqa davrda emas, balki istiqbolda milliy taraqqiyotning sifat ko‘rsatkichlariga aylantirishni talab etadi. Keyingi yillarda inson resursini rivojlantirish masalasi global miqyosda yangi bosqichga ko‘tarildi.

Inson resursiga doir zamonaviy yondashuvlardan quyidagilarni keltirib o‘tamiz: inson kapitali, inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish maqsadlari.

Endilikda iqtisodiy o'sishning markazida tabiiy boyliklar, ishlab chiqarish vositalari yoki moliyaviy kapital emas, balki inson kapitali turibdi. Chunki har qanday jamiyatning haqiqiy boyligi uning tabiiy resurslarida emas, balki bilimli, sog'lom, ijodkor, mas'uliyatli, kreativ insonlar salohiyatida namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Inson kapitali - bu insonning bilim, malaka, sog'liq, tajriba, intellektual salohiyat va ijtimoiy qadriyatlarini orqali iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishga qo'shadigan hissasini ifodalaydigan konsepsiyadir. U nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy taraqqiyotni ham belgilab beradi. Zamonaviy yondashuvlarda inson kapitali milliy raqobatbardoshlikning eng muhim strategik omili sifatida talqin etiladi. Inson kapitaliga investitsiya - bu ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy malaka oshirish, innovatsion tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan har qanday faoliyatdir. Bunday yondashuv ishlab chiqarishning moddiy bazasini kengaytirishdan ko'ra ko'proq natija beradi, chunki inson kapitaliga kiritilgan har bir sarmoya uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni, barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Inson intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatining ahamiyatini ilmiy nuqtai nazardan yoritib bergan va inson kapitali konsepsiyasining shakllanishiga poydevor qo'ygan olim A.Smit hisoblanadi. "Uning qarashlarida ishlab chiqarishning natijaviy maqsadi va jamiyat ijtimoiy boyligining bir qismi sifatida inson asosiy figura bo'lib maydonga chiqadi"[1]. XIX asr oxiriga kelib yana bir iqtisod sohasining yirik vakili A. Marshall ham o'z nazariyalarini ilgari surdi. "Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish inson farovonligini ta'minlab, uning jismoniy, aqliy va ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ammo insonning o'zi bu boylikni ishlab chiqarishning asosiy vositasidir, bu boylikning pirovard maqsadi ham insondir"[2].

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida inson resursi va inson kapitali tushunchalari jamiyat taraqqiyotining markazida turibdi. Inson resursi an'anaviy tarzda ishlab chiqarishning zarur omili sifatida qaralgan bo'lsa, inson kapitali bu qarashni yangicha bosqichga olib chiqdi. Endilikda inson faqat mehnat kuchi emas, balki bilim, salohiyat, sog'liq, ijodkorlik va ma'naviy qadriyatlar majmuasini ifodalovchi iqtisodiy va ijtimoiy boylik sifatida talqin etilmoqda. Inson kapitali konsepsiyasi insonni investitsiya obyekti sifatida e'tirof etadi, chunki ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy rivojlanish va innovatsiyalar sohasiga yo'naltirilgan har bir sarmoya jamiyatning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, inson kapitali inson resursining zamonaviy shakli, uning yuqori bosqichdagi evolyutsion talqinidir. Bu yondashuv insonni iqtisodiy tizimning markaziga qo'yadi, uning ijodiy va intellektual salohiyatini mamlakat raqobatbardoshligining asosiy manbai sifatida ko'radi. Shu sababli, inson kapitalini rivojlantirish – zamonaviy inson resursi siyosatining strategik yo'nalishidir.

“Inson kapitalining rivojlanish omili - bu inson omili hamda inson resurslari tushunchalarining jamlanmasi bo‘lish bilan birga, uning o‘zi ham iqtisodiy kategoriyaga aylanayotgani ko‘pchilik ekspertlar tomonidan tan olinmoqda”[3].

“Inson kapitali har qanday jamiyatning asosiy boyligi va eng qimmatli manbai, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezonidir. Shaxsni o‘rganish, inson kapitalini shakllantirish, uning yig‘ma ijodiy fazilatlari va qobiliyatlari, inson kapitaliga sarmoya kiritish muammosi dunyo fanining asosiy va markaziy muammolaridan biridir. Shu sababli, XXI asr inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish muammolarini o‘rganish, uni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda”[4].

Inson kapitali inson resursining zamonaviy va rivojlangan shaklidir. Agar inson resursi mehnat kuchi, malaka va tajriba jihatidan ishlab chiqarish jarayonining zarur omili sifatida talqin qilinsa, inson kapitali bu resursning sifat jihatini, ya‘ni bilim, salomatlik, innovatsion tafakkur va ijtimoiy qadriyatlar majmuasini o‘zida mujassam etadi. Inson kapitali inson resursini iqtisodiy kategoriyaga aylantirib, unga investitsiya kiritish orqali jamiyat taraqqiyotining strategik omiliga aylanadi. Shu ma‘noda, inson kapitalining rivojlanish omili inson omili va inson resursi tushunchalarining uyg‘unligidan iboratdir. Inson resursini samarali boshqarish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy malakani oshirish va innovatsion muhitni yaratish inson kapitalining sifatini belgilaydi.

XXI asrda inson kapitalini shakllantirish va undan oqilona foydalanish har bir davlatning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlaydigan muhim shartga aylandi. Shu sababli, inson kapitali va inson resursi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivoji milliy taraqqiyotning poydevorini tashkil etadi.

“Inson kapitali jismoniy kapitaldan farqli o‘laroq, insonning ajralmas qismi bo‘lib, uni faqat ma‘lum sharoitlarda shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin. U iqtisodiyotda investitsiyaning eng muhim turi bo‘lib, bilim, sog‘liq va tajriba orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi”[5].

Ushbu fikr inson kapitalining moddiy ne‘mat emas, balki insonning ichki salohiyati sifatida shakllanishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv iqtisodiy o‘sishni insonning bilim va sog‘lig‘i bilan bevosita bog‘laydi. Demak, jamiyat taraqqiyoti insonning o‘ziga qaratilgan sarmoyalar bilan belgilanadi.

Raqamli iqtisodiyot inson kapitalini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ham yaratmoqda. Onlayn ta‘lim, masofaviy ish tizimlari, elektron hukumat va “aqlli” texnologiyalar orqali inson o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi mumkin. Masalan, ilgari kasbiy qayta tayyorlash jarayonlari yillab vaqt olgan bo‘lsa, bugun raqamli platformalar orqali qisqa muddatda yangi malakalar egallash mumkin. Bu jarayon natijasida inson kapitali tezroq yangilanadi, iqtisodiyotning talablariga moslashuvchanlik ortadi.

Biroq raqamlashtirish inson kapitaliga nafaqat imkoniyat, balki yangi chaqiriqlar ham yaratadi. Avvalo, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt tizimlarining keng joriy etilishi natijasida an'anaviy kasblarning bir qismi yo'qolmoqda. Jahon iqtisodiy forumi prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib hozirgi kasblarning qariyb 40 foizi avtomatlashtiriladi. Bu esa yangi turdagi kasblarni, yangi ko'nikmalarni talab qiladi. Shuning uchun inson kapitalini raqamli sharoitga moslashtirish, ya'ni digital reskilling (raqamli qayta tayyorlash) va upskilling (malaka oshirish) jarayonlari strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston misolida qaralganda ham, raqamlashtirish siyosatining markazida inson kapitalini rivojlantirish masalasi turadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida raqamli iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan kadrlar tayyorlash, IT-ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning texnologik savodxonligini oshirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu maqsadda Prezident maktablari, IT-parklar, va raqamli ta'lim platformalari faol rivojlanmoqda. Bu tashabbuslar raqamli transformatsiyaning insoniy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining iqtisodiy samaradorligi ham o'zgaradi. Agar industrial davrda ishlab chiqarish asosan jismoniy mehnatga tayanib, mashinalar asosiy resurs bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrda intellektual mehnat, tahliliy fikrlash va axborot yaratish asosiy boylik manbaiga aylanmoqda. Natijada, inson kapitali iqtisodiy o'sishning asosiy dvigateliga aylanmoqda. Shu jihatdan, raqamli iqtisodiyot – inson kapitalining qiymatini yanada oshiruvchi tizimdir.

Raqamlashtirish jarayoni inson kapitalini boshqarishning yangi usullarini ham talab etadi. Zamonaviy HR-analitika, sun'iy intellekt asosidagi kadrlar boshqaruvi tizimlari, onlayn baholash va masofaviy o'qitish platformalari inson resurslarini samarali rivojlantirish imkonini bermoqda. Bularning barchasi inson kapitali haqida aniq va raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Shu orqali davlat va korxonalar kadr siyosatini strategik darajada rejalashtira oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish inson kapitalining ijtimoiy samaradorligini ham oshiradi. Masalan, elektron sog'liqni saqlash tizimlari orqali aholining sog'lomlik darajasini yaxshilash, raqamli ta'lim orqali ilm olish imkoniyatlarini kengaytirish, elektron davlat xizmatlari orqali vaqt va resursni tejash – bularning barchasi inson kapitalining ijtimoiy qiymatini oshiradi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olib, uni yanada samarali va qulay qiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari - ta'lim, sog'liq, innovatsion fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat - o'zaro uyg'un holda rivojlanishi lozim. Agar ta'lim tizimi raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishga yo'naltirilmasa, sog'lom muhit ta'minlanmasa yoki ijtimoiy adolat tizimi ishlamasa, inson kapitali raqamli

jarayonlarga to'liq moslasha olmaydi. Shu sababli, raqamlashtirish siyosati kompleks yondashuvni talab etadi.

Natijada, inson kapitalining raqamlashtirishdagi o'rni ikki tomonlama ahamiyatga ega: bir tomondan, u raqamli iqtisodiyotning asosiy drayveri, ikkinchi tomondan esa, raqamli iqtisodiyotning asosiy foydalanuvchisi va foydasini oluvchisidir. Ya'ni, inson kapitali raqamlashtirishni yaratadi va undan o'z rivoji uchun foydalanadi. Bu jarayon uzluksiz va o'zaro ta'sirli tizimdir.

Inson kapitali orqali belgilangan salohiyat, faqat ishlab chiqarish samaradorligini emas, balki keng ko'lamdagi ijtimoiy barqarorlikni, ma'naviy yuksalishni ham ta'minlashga xizmat qiladi. Ammo bu salohiyat real hayotda qanday namoyon bo'layotgani - ya'ni inson qanday yashayotgani, qanday ta'lim olayotgani, sog'liqni saqlash xizmatlaridan qay darajada foydalanayotgani va o'z qobiliyatlarini qanday ro'yobga chiqarayotgani - bu endi inson taraqqiyoti tushunchasining mohiyatini tashkil etadi.

Inson taraqqiyoti - bu insonning salohiyatini faqat rivojlantirish emas, balki uni to'laqonli amalga oshirish uchun yaratilgan sharoitlar tizimidir. Ushbu tushuncha iqtisodiy o'sishni inson hayotining sifati bilan bevosita bog'laydi. Bu yondashuvga ko'ra, mamlakat taraqqiyoti yalpi ichki mahsulot hajmi bilan emas, balki fuqarolarning sog'lom, bilimli, ijodiy va erkin yashash imkoniyatlari bilan baholanadi.

Bugungi kunda Inson Taraqqiyoti Indeksi (Human Development Index – HDI) xalqaro miqyosda mamlakatlarning rivojlanish darajasini aniqlovchi muhim indikatorlardan biriga aylangan. Ushbu indeks nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni, balki inson umrining davomiyligi, ta'lim sifati va yashash darajasi kabi muhim omillarni hisobga oladi. Bu esa jamiyatning asosiy e'tiborini inson hayotining mazmuniga, uning intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga qaratadi.

Inson taraqqiyotining markazida "imkoniyatlar makoni" yotadi. Bu makon shaxsga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, erkin fikrlash, to'laqonli ishtirok etish va ijodiy salohiyatini namoyon etish imkonini beradi. Ayni paytda bu faqat davlat siyosati emas, balki har bir institut - maktab, universitet, sog'liqni saqlash tizimi, mehnat bozori va madaniy muhit faoliyatida namoyon bo'lishi kerak bo'lgan umumiy yondashuvdir. XXI asrda ushbu ikki tushuncha bir-birini to'ldirib, zamonaviy taraqqiyot strategiyasining markaziga aylangan.

"Bugungi kunda inson taraqqiyoti - bu shunchaki iqtisodiy o'sish emas, balki insonlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq tushunchadir"[6].

Inson resursida mavjud bo'lgan kapital o'z holicha mavjud bo'lmaydi. U insonning o'zidan, jamiyat (davlatdan) ma'lum bir miqdordagi investitsiyani talab qiladi. Bu odatda shaxsiy

rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash natijasida amalga oshiriladi. Inson resursiga doir tadqiqotlarda inson kapitalini qo‘llab-quvvatlash, samaradorligini oshirish maqsadida inson taraqqiyot kategoriyasi qo‘llaniladi.

1987-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlantirishni rejalash qo‘mitasi tarkibiy qayta qurishda inson chiqimlari sohasida tadqiqotlar olib borish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ushbu tadqiqot mualliflari - ingliz iqtisodchilari Keyt Griffin va Jon Nayt hamda 1982-1988-yillarda Pokistonning moliya vaziri vazifasida ishlagan Mahbub ul-Xaq o‘z izlanishlarining natijasi – “Inson salohiyatini rivojlantirish: rivojlanish strategiyasining yoddan chiqarilgan mezonini” ma’ruzasining loyihasini e’lon qildilar[7].

“Rivojlanishning umumiy nazariyasiga ular tomonidan tub jihatdan yangicha yondashuv birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1990-yilgi Inson taraqqiyoti to‘g‘risidagi global ma’ruzasida o‘z ifodasini topgan inson taraqqiyotining nazariy-konseptual asosini yaratilgan. Bu haqda taniqli fransuz iqtisodchisi, Nobel mukofotining laureati M.Alle “demokratik va insonparvar jamiyatda oliy maqsad va diqqat markazi davlat emas, balki insondir”,[8] deb ta’kidlagan edi.

Inson uchun munosib shart-sharoit yaratish, huquqlarini kafolatlash, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaraish kabi umuminsoniy g‘oyalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Rivojlanish dasturining ekspertlar guruhlarini tomonidan birlashtirilib, inson taraqqiyotiga konseptual yondashuvni shakllanishiga zamin bo‘ldi.

Ushbu yondashuv mazmunan jihatdan inson resursini salomatligini mustahkamlash, savodlilik va bilimlilik darajasini oshirish, kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirish orqali inson resursiga keng imkoniyat va sharoitlarni yaratib berish hamda mazkur ular egallagan qobiliyatlarni realizatsiya qilishda foydalanishni nazarda tutadi. Insoniyat taraqqiyotining oltita asosiy ustuni bor: tenglik, barqarorlik, mahsuldorlik, imkoniyatlarni kengaytirish, hamkorlik va xavfsizlik[9].

Inson taraqqiyotining asosiy mezonini umr ko‘rish davomiyligi, savodxonlik darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyatini ifoda etadigan insonni rivojlantirish ko‘rsatkichi bo‘lib hisblanadi.

Bugungi kunda global va milliy taraqqiyot masalalari markazida davlat yoki yalpi milliy daromadidan ko‘ra inson salohiyati, uning sog‘ligi, ta’limi va ko‘nikmalariga investitsiya qilish turganligining ahamiyati yanada oshib bormoqda. Ma’lumki, Nobel mukofoti laureati A.Senning imkoniyatlar yondashuvi asosidagi Inson taraqqiyoti indeksi mamlakat taraqqiyotini nafaqat YaIM, balki aholi umr ko‘rish davomiyligi va ta’lim darajasi bilan o‘lchaydi.

So‘nggi BMTTD hisobotida esa boy davlatlarda inson taraqqiyoti darajasi rekord darajaga yetgani, biroq eng kam rivojlangan mamlakatlarda esa u inqiroz darajasida qolayotgani qayd etildi[10]. Demak, zamonaviy dunyoda barqarorlik va taraqqiyot uchun odamlarni sifatli o‘qitish,

salomatlikni ta'minlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirish zarurati ortib bormoqda. Inson taraqqiyotining ahamiyati iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda namoyon bo'ladi: bir tomondan, bilim va sog'lom insonlar mamlakat daromadining asosiy manbai hisoblanadi, chunki Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzi boyligining taxminan 66 foizi inson kapitaliga to'g'ri keladi (AQShda 77 foiz)[11]. Ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish kabi strategiyalar ijtimoiy barqarorlik va adolatni mustahkamlaydi, jamiyat a'zolarining farovonligini oshiradi hamda inklyuziv rivojlanishni targ'ib qiladi.

Zamonaviy yondashuvlarda inson taraqqiyotining zaruriyati global va mahalliy muammolarni yengib o'tishda ham oshib bormoqda: pandemiya, iqlim o'zgarishi, texnologik inqirozlar kabi dolzarb muammolarga qarshi kurash uchun jamoaviy ong va bilim talab etiladi. Masalan, so'nggi yillarda innovatsiya va raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanishi natijasida ish o'rinlarining tuzilishi tubdan o'zgardi: zamonaviy iqtisodiyot yuqori bilim va malakali ishchi kuchini talab qiladi. Bu talabni inobatga olib, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va doimiy kasbiy tayyorgarlik orqali inson kapitalini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar fikricha, an'anaviy YaIMga asoslangan iqtisodiy o'sish nazariyalaridan farqli o'laroq, inson taraqqiyoti modelida odamlarning hayot sifatini yaxshilash va imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor hisoblanadi. Bu nuqtai nazarda mamlakatning haqiqiy boyligi uning fuqarolaridan iborat bo'lib, odamlarni ilmi va salomat qilish davlat siyosati markaziga qo'yiladi.

Shu tarzda inson taraqqiyoti va inson kapitali o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri boshqasini kuchaytiradi: ta'lim va sog'liqni saqlashga qaratilgan investitsiyalar odamlarning salohiyatini oshirib, iqtisodiyotga katta foyda keltiradi. Kelajakda ham ijtimoiy-iqtisodiy raqobatda odamlarga sarmoya kiritish eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo'laveradi. Hukumatlarning dolzarb vazifasi - ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga sarmoya ajratish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish va bandlikni qo'llab-quvvatlash orqali fuqarolarning salohiyatini oshirishdir. Masalan, O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida "inson qadri uchun" prinsipi asosiy tamoyillardan biri etib belgilangan; bu doirada aholi farovonligini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratiladi. Ushbu yondashuv milliy iqtisodiyotning inklyuziv va barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish tamoyillari doimiy e'tiborda bo'lib, masalan, BMTning 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari (BTM) orasida sifatli ta'lim (Maqsad 4), sog'lom hayot (Maqsad 3), gender tengligi (Maqsad 5) va teng imkoniyatlarni ta'minlash (Maqsad 10) kabi bandlar o'z aksini topgan. Bu maqsadlar orqali xalqaro hamjamiyat inson salohiyatini mustahkamlash va insonparvar ijtimoiy siyosatni ilgari surish zarurligini ta'kidlaydi.

Barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM yoki SDG – Sustainable Development Goals) inson taraqqiyoti konsepsiyasining mantiqiy davomi va amaliy ifodasidir. Ular inson kapitalini

rivojlantirish, tenglikni ta'minlash va iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan global dastur sifatida maydonga chiqqan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2000-yilda qabul qilingan Mingyillik Taraqqiyot Maqsadlari (MDG – Millennium Development Goals) 2015-yilgacha qashshoqlikni kamaytirish, sog'liqni saqlashni yaxshilash va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, ko'plab mamlakatlarda muhim natijalarga erishildi. Ammo bu jarayonda ayrim mamlakatlar, jumladan rivojlanayotgan davlatlar, natijalarni teng taqsimlashda va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muammolarga duch keldi. Shu sababli, 2015-yilda BMT tomonidan yangi global kun tartibi — 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror Taraqqiyot Kun tartibi (Agenda 2030) qabul qilindi.

Agenda 2030 doirasidagi 17 ta SDG har biri inson taraqqiyoti va kapitalining turli qirralarini qamrab oladi. Ularning asosiy maqsadi — barcha insonlar uchun farovon, adolatli va barqaror kelajakni ta'minlashdir. Masalan, BTM-1 “Qashshoqlikka barham berish” inson kapitalini mustahkamlashning boshlang'ich nuqtasidir, chunki iqtisodiy qashshoqlik shaxsning ta'lim va sog'liq imkoniyatlarini cheklaydi. BTM-3 “Sog'lom hayot” inson kapitalining salomatlik komponentini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u umr davomiyligini uzaytirish, bolalar o'limini kamaytirish va epidemiyalarga qarshi kurashni maqsad qiladi. BTM-4 “Sifatli ta'lim” esa inson salohiyatini bevosita oshiruvchi asosiy yo'nalishdir - chunki ta'lim bilim, malaka va ijodkorlikni rivojlantiradi, bu esa iqtisodiyotda yuqori unumdorlikka olib keladi.

BTM'larning asosiy mohiyati shundaki, ular faqat iqtisodiy o'sish yoki infratuzilma rivoji bilan chegaralanmaydi. ular inson markazidagi rivojlanish yondashuvini ilgari suradi. Ya'ni, taraqqiyot natijalari inson hayotining sifatiga, ijtimoiy adolatga va ekologik muvozanatga xizmat qilishi kerak. Shu jihatdan, SDG'lar inson taraqqiyotini kengroq konsepsiyada — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'lchovlar uyg'unligida ko'radi.

Tarixiy jihatdan, BTM'larning paydo bo'lishi inson taraqqiyot nazariyasining amaliy ifodasi sifatida ko'riladi. 1990-yilda BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan e'lon qilingan Inson Taraqqiyoti Hisoboti (Human Development Report) da ta'kidlanganidek, taraqqiyotning markazida insonning o'zi turishi kerak. Shu g'oya keyinchalik SDG'larning mafkuraviy asosiga aylandi. Agar MDG'lar asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy muammolarni kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lsa, SDG'lar butun dunyo uchun — boy yoki kambag'al, katta yoki kichik mamlakatlar uchun umumiy yo'nalish sifatida belgilandi.

SDG'larning maqsadi — barcha insonlar uchun teng imkoniyat yaratish, ularning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va avlodlararo adolatni ta'minlashdir. Bunda ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, gender tengligi, ekologik muvozanat va ijtimoiy barqarorlik bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Masalan, sifatli ta'lim (BTM-4) bo'lmasa, mehnat bozori uchun malakali ishchi kuchi shakllanmaydi; sog'lom hayot (BTM-3) ta'minlanmasa, inson kapitali

zaiflashadi; gender tengligi (BTM-5) bo'lmasa, jamiyatning yarmi to'liq iqtisodiy hayotda ishtirok eta olmaydi. Shu tarzda, SDG'lar o'zaro bog'langan tizim sifatida ishlaydi.

Ahamiyati jihatidan, SDG'lar global siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy taraqqiyotning yagona integratsion modeli bo'lib xizmat qiladi. Ular hukumatlar, xususiy sektor, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Har bir maqsadga erishish ko'p tomonlama yondashuvni talab qiladi: masalan, qashshoqlikka qarshi kurash faqat iqtisodiy yordam emas, balki ta'lim, sog'liq, ekologiya va boshqaruv tizimini mustahkamlashni ham o'z ichiga oladi.

Dolzarliligi esa shundaki, SDG'lar hozirgi global muammolarga javob beradi. XXI asrda insoniyat iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi, demografik o'sish, migratsiya, raqamli tafovut va ijtimoiy tengsizlik kabi yangi chaqiriqlarga duch kelmoqda. Aynan shu sharoitda, SDG'lar barqarorlik va inklyuzivlikni uyg'unlashtirish orqali kelajak avlodlar uchun xavfsiz va adolatli rivojlanish modelini taklif etadi.

Masalan, BTM-8 "Munozasiz mehnat va iqtisodiy o'sish" raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini yangi ko'nikmalar bilan qurollantirishni talab qiladi. BTM-9 "Sanoat, innovatsiya va infratuzilma" esa texnologik yangilanish orqali raqobatbardoshlikni oshirishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, BTM-13 "Iqlim o'zgarishiga qarshi chora-tadbirlar" ekologik barqarorlikni inson taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida belgilaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston misolida ham SDG'lar milliy taraqqiyot strategiyalari bilan uzviy bog'langan. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi va 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy Taraqqiyot Strategiyasida BTM'larning asosiy tamoyillari, xususan, inson qadrini ulug'lash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va gender tengligini kuchaytirish yo'nalishlari o'z aksini topgan. Bunda inson kapitalini rivojlantirish mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlashning asosi sifatida qaraladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Вербицкая В. Динамика развития человеческого потенциала и приоритеты системы образования. Высшее образование в России. 2005. – № 2.
2. Marshall A. Principles of Economics. – London, 1983. – P. 759.
3. Паулман В. Ф. О человеческом капитале. <http://lit.lib.ru/p/paulmanwf/text0900-1.shtml> (December, 2014)
4. Qosimov F.S Yangilanayotgan O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari: falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasi avtoreferati (PhD).- Chirchiq, 2021. B-16

5. Muxammedov M.M. “Inson kapitalini rivojlantirishni zamonaviy mexanizmlari va ularning taraqqiyotdagi ahamiyati masalalarining falsafiy tahlili” falsafa fanlari bo‘yicha (PhD) avtoreferati. Buxoro: 2023, 12-bet.

6. Berdikulov O.X. “Inson kapitalini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar” iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD avtoreferati. T.: 2023, 8-bet

7. Griffin K., Knight J., ul Haq. “Human Development in the 1980s and Beyond.” Journal of Development Planning 19 (Special number) (1989)

8. Алле М. Экономика как наука / Пер. с франц. - М.: Наука для общества, РГГУ, 1995. - С. 15.

9. “What is Human Development? - Human Development Reports”. URL:www.hdr.undp.org. Archived from the original on 2017-10-27.

10. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/bmt-taraqqiyot-dasturi-malumotlariga-kora-boy-davlatlar-inson-taraqqiyoti-boyicha-rekord-pogonaga-kotirilgan-eng-kambagal#:~:text=ajralib%20turadi,inqirozdan%20oldingi%20darajadan%20pastligicha%20qolmoqda>

11. <https://review.uz/uz/post/inson-kapitaliga-sarmoya-yangi-ozbekiston-taraqqiyoti-kafolati#:~:text=Jahon%20banki%20ma%20lumotlariga%20ko%20ra%20Oyer,milliy%20boylikning%2077%20foiziga%20teng>